

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**SOLUTIONS AND PROBLEMS OF THE NEOLOGISMS OF THE PERSIAN LANGUAGE IN RECENT YEARS****Nozima Tulkunovna Khodieva***Lecturer**Tashkent State University of Oriental Studies**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Academy of Persian Language and Literature, Iranian linguists, new words and terms.

Received: 15.05.24**Accepted:** 17.05.24**Published:** 19.05.24

Abstract: This article will focus on the development of society, on solutions and problems of neologisms that denote new things and concepts that arise in connection with the demand and need in life. The novelty of neologisms is noticeable only in those moments when they first appeared: Over time, they lose their "novelty" and usually become active words. For example, in the Persian language, for a number of years, such new words as الرمينال [terminal], آدرس [address], كاتلوك [kotolog] and many others have been widely used.

SO'NGI YILLARDAGI FORS TILIDAGI NEOLOGIZMLARNING YECHIM VA MUAMMOLARI**Nozima Tulkunovna Xodiyeva***o'qituvchi**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: Fors tili va adabiyoti akademiyasi, eron tilshunoslari, yangi so'z va iboralar.

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyat taraqqiyoti, hayotning talab-ehtiyoji bilan paydo bo'lgan yangi narsa va tushunchalarni ifodalovchi so'zlar ya'ni neologizmlarning yechim va muammolari haqida so'z yuritiladi. Neologizmlarning yangiligi dastlab paydo bo'lgan vaqtlardagina sezilib turadi: vaqt o'tgach, ular "yangilik" xususiyatini yo'qotib, odatda, faol so'zlar qatoriga o'tadi. Masalan, fors tili uchun bir qancha yil davomida yangi hisoblangan الرمينال [terminal], آدرس [odras], كاتلوك [kotolog] va

ko'pgina boshqa so'zlar hozirgi kunda
umumiste'moldagi so'zlarga aylanmoqda.

РЕШЕНИЯ И ПРОБЛЕМЫ НЕОЛОГИЗМОВ ПЕРСИДСКОГО ЯЗЫКА ПОСЛЕДНИХ ЛЕТ

Нозима Тулкуновна Ходиева

Преподаватель

Ташкентский государственный университет Востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Академия персидского языка и литературы, иранские лингвисты, новые слова и термины.

Аннотация: В этой статье речь идёт о развитии общества, о решениях и проблемах неологизмов, которые обозначают новые вещи и понятия, возникающие в связи со спросом и потребностью в жизни. Новизна неологизмов заметна только в те моменты, когда они впервые появились: со временем они теряют свою "новизну" и обычно переходят в разряд активных слов. Например, в персидском языке в течение ряда лет повсеместно использовались такие новые слова, как ارمينال [терминал], آدرس [адрес], کاتلوگ [котолог] и многие другие.

KIRISH

Fors va dariy tillarining asosini arab alifbosi asosida alohida belgilar qo'shilgan holda yaratilgan forsiy alfavit tashkil etadi. Eronshunoslar fors tilining tarixidagi bir necha davrlarni ajratib ko'rsatishadi: qadimgi fors tili, o'rta fors tili va yangi fors tili. Hozirgi kunda taxminan 200 million kishi so'zlashadigan 87 ta Eron tillari mavjud.

Yigirmanchi asrning ikkinchi yarimidan boshlab fors grammatik nazariyasi va tilshunosligida tub o'zgarishlar yuz berdi. Fors tilshunoslik ilmiga Yevropa tilshunoslik maktablarining yangidan-yangi ta'limotlari birin-ketin kirib kela boshladi. Tabiiyki, yangi tilshunoslik nazariyalari bilan birga Yevropa tilshunoslik terminlari va so'zlari fors tiliga oqib kela boshladi. Bu voqelik eron tilshunoslari va Fors tili va adabiyoti akademiyasi oldida fors tilshunoslik terminologiyasini tartibga solish vazifasini ko'ndalang qilib qo'ydi. Eron tilshunoslari oldida ikkita og'ir muammoni hal qilish vazifasi turardi: yo tilshunoslikdagi internasional terminlarni to'g'ridan-to'g'ri qabul qilish, yoki bu terminlarni fors tilidagi muodilini topib o'g'irish. Bir guruh eron tilshunoslari internasional tilshunoslik terminlarini to'g'ridan-to'g'ri qabul qilish tarafdori bo'lsa, ikkinchi bir guruh tilshunoslari ularni fors tilidagi muodilini ishlab chiqish qarashlarini oldinga surdilar. Natijada fors tilida tilshunoslik terminlarining turli-tuman variantlari paydo bo'ldi. Yuzaga kelgan bunday holat fors tilida yozilayotgan grammatika

darsliklarini, tilshunoslik asarlarini maktab o'quvchilari, universitet talabalari va tadqiqotchi olimlar tomonidan tushunishini qiyinlashtirdi. Bu holat forscha tilshunoslik terminlarini tartibga solish vazifasini dolzarb masalaga aylantirdi. Yuqorida zikr etilgan muammolarni hal qilish maqsadida eron tilshunos olimlari yozgan grammatikaga oid asarlari va tilshunoslik nazariyasi bo'yicha kitoblarining oxirida forscha – inglizcha va inglizcha – forscha lug'atlarni ilova qila boshlashdi. Fors tili va adabiyoti akademiyasi "O'quv tadqiqot" va "San'at va adabiyot" terminlari bo'limida bir qator tilshunoslik va adabiyotshunoslikka oid terminlarni muomalaga kiritib, 1978 yilda "Fors tili va adabiyoti akademiyasi tasdiqlagan so'zlar" nomi bilan e'lon qildi. Ammo bu terminlar juda kam bo'lib, tilshunoslik tadqiqotchilarining talablarini to'la qondira olmas edi. Bizga ma'lum manbalardan 1993 yilda tuzilgan Najafali forscha lug'ati terminlar "فرهنگ اصطلاحات" "دستور زبان فارسی" Mirzoyining tilshunoslik terminlarini tartibga solish bo'yicha birinchi urinishlardan edi. Bu lug'atdan so'ng 1997 yilda doktor Muhammad Fallohiy Muqimiyning lug'atlarida e'lon qilindi. Bu lug'atda "فرهنگ زبانشناسی و زبان آموزی انگلیسی-فارسی" fors tilida hozir amalda bo'lgan tilshunoslik va grammatik terminlar, shuningdek G'arb tilshunoslik maktabida hozirda keng qo'llanayotgan tilshunoslik terminlarining fors tilidagi muodili berilgan.

Yuqorida aytib o'tilingan ishlardan tashqari Fors tili va adabiyoti akademiyasi faoliyatining dastlabki yillarida 2000 ga yaqin xorijiy so'zlar uchun muodil so'zlar tuzildi. Ikkinchi Fors tili va adabiyoti akademiyasi faoliyati 1347 hijriy (1968 milodiy) yilda tashkil etildi va jami 6665 xorijiy so'zlar uchun muodil so'zlar tuzildi. 1351 hijriy (1972 milodiy) yilda uchinchi Fors tili va adabiyoti akademiyasi faoliyati tashkil etildi 1368 (1989 milodiy) yilga qadar faoliyati davom etdi va o'sha davrda 45000 ta xorijiy so'zlar uchun muodil so'zlar tuzildi. G'ulom Ali Haddad Adel 2018 yilda Fors tili va adabiyoti akademiyasi tomonidan tasdiqlangan ekvivalent lug'at soni 60 000 dan ortiq ekanligini e'lon qildi.

ASOSIY QISM

Hozirgi zamon fors tilida genetik jihatdan turli tillarga, ya'ni bir tomondan fors tiliga va boshqa tillarning tillariga tegishli alohida leksemalar bo'lishi mumkinligini qayd etishimiz mumkin. (arabcha, inglizcha, fransuzcha, ruscha va boshqa). Ushbu leksemalar fors tilida bir vaqtning o'zida birga yashaganligi sababli, ular leksik klasterlar ya'ni ikkita sinonim ko'p tilli leksemalarni tashkil qiladi. Quyidagi jadvalda yangi fors tilidagi leksemalarga misollarni ko'rishimiz mumkin.

Evropadan o'zlashgan so'zlar	Fors tilidagi varianti	O'zbek tilidagi tarjimai
تست [təst]	آزمون [ozmun]	Tect
اتومبیل [otomobil]	خودرو [xodro]	Avtomobil
ارگان [organ]	نهاد [nehod]	Organ
کنگره [kongre]	همایش [hamoyesh]	Kongress
پرسنال [personal]	کارکنان [korkenon]	Xodim
آدرس [odres]	نشانی [neshoni]	Manzil

سوبسید [subseyed]	یارانه [yorone]	Subsidiya
توریسم [turizm]	جهانگردی [jahongardi]	Turizm
کامپیوتر [computer]	رایانه [rayone]	Kompyuter
سیستم [system]	سامانه [somone]	Sistema
ترمینال [terminal]	پایانه [poyone]	Terminal
کاتلוג [kotolog]	کالابرگ [kolobarg]	Katalog
کارت [kort]	برگ [barg]	Kartochka
آمبولانس [ambulons]	بیماربر [bimorbar]	Tez yordam
اوکی [ukey]	باشه [boshe]	Xo‘p
اس ام اس [es em es]	پیامک [peyomak]	Xabar
ایميج [imij]	تصویر [tasvir]	Imij
پلان [pelan]	طرح [tarh]	Plan
پلیس [polis]	نیروی انتظامی [niruye rntezomi]	Ichki ishlar
پیک [pik]	اوج، فرار [owj, feror]	Avj
ایفون [oyfo`n]	در باز کن [dar boz ko`n]	Domofon
تاکسی [toksi]	مسافرکش [mo`sofer kash]	taksi
تلفن [telefon]	اوابر [ovobar]	telefon
کامپیوتر [computer]	رایانه [royone]	kompyuter
موبایل [muboil]	گوشی همراه [gushi-ye hamroh]	Qo‘l telefoni
شامپو [shompu]	سرشوی [sar shui]	Shampun
کولر [kuler]	خنک کننده [xo`nak ko`nande]	kondisioner
آسفالت [osfalt]	قیر تخت [qgirtaxt]	asfalt
آنتیک [ontik]	نایاب [noyob]	noyob
پاراگراف [porogrof]	بند [band]	paragrof
پرینت [print]	چاپ [chop]	Chop
پرینتر [printer]	چاپگر [chopgar]	Printer
چیپس [chips]	سیب زمینه سرخ شده [sib zamine-ye so`rx sho`de]	Chips
دیکشنری [diksheneri]	واژه نامه [vojenome]	Lug‘at
راکت [roket]	موشک [mushak]	Roketa
روبات [rubot]	آدم مکانیکی [odam-e mekoniki]	Robot
سالاد [solod]	خوراک سبزیجات [xurok-e sabzijot]	Salat
سوپرمارکت [supermarket]	فروشگاه [fo`rushgoh]	Supermarket
سایز [soyz]	اندازه [andoze]	Andoza, razmer
فوتبالیست [fudbolist]	بازیگر فوتبال [bozigar-e fudbol]	Futbolist

Fors tiliga kirib kelgan xorijiy so‘zlarni nafaqat gazeta va internet materiallarida balki badiiy adabiyotlarda ham ko‘plab uchratishimiz mumkin. Quyida keltirilgan misollar M. Muadaburning “Parichehr” asaridan olingan.

ساعت حدود 11 شب بود. زنگ خونه خود مون رو زدم. فرخنده خانم آیفون رو جواب داد.

Soat chamasi 11 edi. Uyimizning qo‘ng‘irog‘ini chaldim. Farxunde xonim domofonga javob berdi.

راننده تاکسی با خنده مارو نگاه می کرد.

Taksi haydovchisi kulib bizlarga qarirdi.

مادرم به طرف تلفن حرکت کرده بود که ملتسمانه به پدرم نگاه کردم.

Onam telefon tomon ketayotganda men otamga zorlanib qaradim.

لوازم کامپیوتر و موبایل و از این چیز ها یواشکی می آره ایران.

Mabil telefon, kompyuter va shu kabi narsalarni Eronga olib keladi.

- دکترای شیمی داره، چند قلم از این محصولات که الان مصرف می کنید، مثل شامپو و صابونو خمیر دندانو چند چیز

دیگه، ساخت پدر منه. کارخونه داره.

- Otam ximiya fanlar doktori. Hozirda ishlatayotgan shampun, sovun, tish pastasi va shu

kabilarni ishlab chiqaradi. Uning zavodi bor.

ماشین شهره یک هوندای مدل بالا بود، با کولرو پخش و موبایل روی داشپورت.

Shahrening moshinasi oxirgi modeldagi xunday edi. Kondiseonerli edi.

در همین موقع به چراغ راه نمایی نزدیک شدیم و شهره زد روی ترمزو ماشین با صدای مهیب کشیده شدن ترمز،

روی آسفالت لیز می خورد.

Shu payt svetoforga yaqinlashdik va Shahre moshinani tormozini bosdi va tormozning

chiyillagan ovozi bilan moshina asfaltda sirg'anardi.

فرگل آدرس خونه خودشون رو به من داد.

Fargul uy manzilini menga aytdi.

XULOSA

Hozirgi puristik tendensiyaga ko'ra, yevropa leksemalari fors leksemalari bilan almashtirilgan bo'lsada, ulardan foydalanishda davom etish ehtimolligi ayrimlarida qat'iy puristik taqiqlariga qaramay davom etib kelmoqda. Hozirgi zamon fors badiiy adabiyotlarida xorijiy leksemalar keng ishlatilayotganini ko'rishimiz mumkin. M. Muadaburning "Parichehr" asaridan ko'plab misollar yig'ildi. Va tahlil qilinganda, asardagi xorijiy so'zlar 10-15 % tashkil qildi.

Yuqoridagi jadvalning 3chi bo'limida keltirilgan o'zbek tilidagi tarjimasida o'zbek tilidagi tilshunoslik terminlari aksariyat hollarda internasional terminlardan iborat bo'lib, bular o'zbek tilshunoslik terminlarining katta bir qismni tashkil etishini ko'rishimiz mumkin. Buning sababi, bir tomondan, o'tmish ijtimoiy tuzumining taqozosi bilan bo'lsa, ikkinchi tomondan qulay. Chunki terminlarni bir tomondan aniq tarjimasi qiyin bo'lsa, boshqa tomondan ingliz va rus tillaridagi xalqaro terminlar bilan bir xil bo'lgani uchun eslab qolish va o'zlashtirish oson. Yana bir jihati, bu terminlar o'zbek tilshunoslari tomonidan qabul qilingan va o'zbek tilidagi tilshunoslik adabiyotida allaqachon o'rnatib bo'lgan. Ularning o'zbek tilidagi muodilini qo'llash, muayyan muammolarni keltirib chiqaradi.

Shuni ham aytib o'tish joizki, fors tilida yevropa leksemalaridan tashqari arabiy leksemalarni ham ko'p uchratishimiz mumkin. Bunday kirib kelish holatini biz o'rta asr fors tilisidan boshlab kuzatishimiz mumkin.

Hozirgi vaqtda Eron hukumati fors tilining maqomini yaxshilash va dunyoning xalqaro tillaridan biri darajasiga erishishga harakat qilmoqda.

“Fors tili va adabiyoti akademiyasi” sayi harakatlari bilan OAV ning axborot materiallaridagi yevropadan kirib kelgan leksemalarni forsiy leksemalar bilan almashtirishning 1.5-2% ga erishilindi.

Natijada, 1995 yildan 2010 yilgacha "Eron" gazetasining lugʻatida yevropadan kirib kelgan leksemalar chastotasi 2,02% dan 1,74% gacha kamaydi. Shu bilan birga, va bundan ham muhimi, tilning sofliqi uchun kurashning koʻrsatkichi sifatida tavsiya yetilmagan xorijiy leksemalardan foydalanish deyarli 1,5 baravar kamaydi.

Zamonaviy fors tili lugʻatining rivojlanishida yetakchi rolni 1935 yildan to hozirgi kungacha Eronda mavjud boʻlgan yuqorida tilga olingan “Fors tili va adabiyoti akademiyasi” egallaydi. “Fors tili va adabiyoti akademiyasi” yevropadan kirib kelgan leksemalarni forsiy leksemalar bilan almashtirishni oʻz oldiga vazifa qilib qoʻygan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. A.Quronbekov. Forscha –oʻzbekcha va oʻzbekcha-forscha tilshunoslik terminlari lugʻati. T.2015.
2. Sotova O.M. Osnovnie strukturno-semanticheskie osobennosti terminoobrazovaniya v sovremennom persidskom yazike: avtoref. dis. na soiskanie uchyon. stepeni kand. filol. nauk: spes. 10.02.22 «Yaziki narodov stran Yevropi, Azii, Afriki...» / Sotova Olga Mixaylovna: Moskva. Institut yazikoznaniya RAN. - Moskva 2008. - 17 s.
3. Persidsko-russkiy slovar. M. Russkiy yazik.1985.
4. م. مودبپور. پریچهر. تهران، چاپ بیستم. سال زمستان 84.
5. http://en.wikipedia.org/wiki/Iranian_Languages